



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

1945-1955 YILLARDA SAMARQAND VILOYATINING IJTIMOIY – IQTISODIY HAYOTI; ARXIV MATERIALLARI ASOSIDA

Nazarov O‘rol Sirojiddin o‘g‘li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada 1945–1955 yillarda Samarqand viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi arxiv materiallari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda urushdan keyingi davrda amalga oshirilgan iqtisodiy tiklanish jarayonlari, sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining rivojlanish tendensiyalari hamda markazlashgan rejalashtirish siyosatining hudud iqtisodiyotiga ta‘siri yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Xalq Komissarlari Soveti, Forish, kooperativ sanoat, mahalliy budget, Kattaqo‘rg‘on, modernizatsiya.

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ В 1945–1955 ГГ. (НА ОСНОВЕ АРХИВНЫХ МАТЕРИАЛОВ)

Назаров Урол Сирожиддин угли

Самаркандский государственный университет имени Шарафа Рашидова, базовый докторант

Аннотация

В статье на основе архивных материалов анализируется социально-экономическое развитие Самаркандской области в 1945–1955 гг. Рассматриваются процессы послевоенного экономического восстановления, тенденции развития промышленности и сельского хозяйства, а также влияние политики централизованного планирования на региональную экономику.

Ключевые слова: Совет Народных Комиссаров, Фориш, кооперативная промышленность, местный бюджет, Каттакурган, модернизация.

SOCIO-ECONOMIC LIFE OF THE SAMARKAND REGION IN 1945–1955 (BASED ON ARCHIVAL MATERIALS)

Nazarov O‘rol Sirojiddin ugli

Samarkand State University named after Sharof Rashidov, Basic Doctoral Student

Abstract

This article analyzes the socio-economic development of the Samarkand region in 1945–1955 based on archival materials. It examines the processes of post-war economic recovery, development trends in industry and agriculture, and the impact of centralized planning policies on the regional economy.

Keywords: Council of People’s Commissars, Forish, cooperative industry, local budget, Kattakurgan, modernization.

XX asrning o‘rtalari, xususan, Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr Sovet Ittifoqi hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy tizimni qayta tiklash va modernizatsiya qilish jarayonlari bilan xarakterlanadi. 1945–1955 yillar oralig‘ida Samarqand viloyatida ham ushbu jarayonlar markazlashgan iqtisodiy siyosat doirasida amalga oshirilib, sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Mazkur davrda viloyatda sanoat ishlab chiqarishini

tiklash va kengaytirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hamda qishloq xo'jaligini, ayniqsa paxtachilikni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Sanoat va agrar sohalaridagi bu o'zgarishlar markaziy rejalashtirish tizimi asosida olib borilgan bo'lib, ular viloyat iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishiga va aholining ijtimoiy turmush tarziga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, ushbu davrda amalga oshirilgan iqtisodiy siyosat ikki tomonlama xususiyat kasb etdi: bir tomondan, ishlab chiqarish hajmining oshishi va infratuzilmaning rivojlanishi kuzatilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, majburiy rejalashtirish, resurslarning markazlashuvi hamda qishloq aholisi mehnatidan intensiv foydalanish kabi omillar ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirdi. Bugungi kunda xalqaro ilmiy doiralarda sovet davri iqtisodiy tizimi, uning hududiy xususiyatlari mintaqalarga ta'siri masalalari keng qamrovda o'rganilmoqda. Xususan, yagona xalq xo'jaligi kompleksining shakllanishi, uning boshqaruv mexanizmlari va iqtisodiyot tarmoqlariga ko'rsatgan ta'siri turli metodologik yondashuvlar asosida tahlil qilinmoqda. Shu nuqtai nazardan, Samarqand viloyatining 1945–1955 yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini arxiv materiallari asosida o'rganish nafaqat hududiy tarixni yoritish, balki sovet iqtisodiy modelining amaliy natijalarini mikro darajada tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur maqolaning maqsadi 1945–1955 yillarda Samarqand viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy hayotini arxiv manbalari asosida kompleks tahlil qilish, ushbu davrda yuz bergan asosiy o'zgarishlar hamda ularning aholi turmush darajasiga ta'sirini aniqlashdan iborat.

1946-yil 2-fevralda SSSR Xalq Komissarlari Soveti tomonidan qabul qilingan "O'zbekistonda 1946–1953 yillarda paxtachilikni tiklash va rivojlantirish choralari to'g'risida"gi qaror urushdan keyingi agrar siyosatning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi.[1] Mazkur hujjat asosida respublikada, jumladan Samarqand viloyatida paxtachilikni jadallik bilan kengaytirish, hosildorlikni oshirish va sug'oriladigan yer maydonlarini ko'paytirish vazifalari qo'yildi. Arxiv hujjatlarida, viloyatda 1946 - yilda paxta ekin maydonlarini 90 ming gektarga kengaytirish va har gektardan olinadigan hosildorlikni 16 sentnerga yetkazish vazifasi belgilanganligi qayd etiladi.[2] Ushbu ko'rsatkichlar urushdan keyingi davrda paxtachilikni jadal rivojlantirishga qaratilgan intensiv va ekstensiv omillarning birgalikda qo'llanilganligini ko'rsatadi. Bunda ekin maydonlarining kengaytirilishi bilan bir qatorda hosildorlikni oshirish ga urg'u berilishi paxtachilikni strategik tarmoq sifatida rivojlantirish siyosatining ustuvorligini aks ettiradi.

Arxiv materiallari Samarqand viloyatida qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishi bir xil darajada kechmaganligini ko'rsatadi. Xususan, viloyatda mavjud 1200 ta kolxozdan 800 dan ortig'ida umumlashtirilgan meva bog'lari mavjud bo'lmagan.[3] Bu esa kolxozlarning yarmidan ko'prog'ida bog'dorchilik va uzumchilik xo'jaliklari yetarli darajada rivojlanmaganligini anglatadi. Ya'ni, sovet iqtisodiy siyosatida paxtachilikka ustuvor ahamiyat berilishi natijasida bog'dorchilik va tokchilik kabi an'anaviy tarmoqlar ikkinchi darajaga tushib qolgan.

Darg'om tumani kengashi hujjatlarida qayd etilishicha, mahalliy budjet hajmi 1939-yildagi 3 mln 451 ming so'mdan 1946-yilga kelib 4 mln 300 ming so'mga yetib, 46,8 foizga oshgan. Ushbu ko'rsatkich urushdan keyingi davrda hudud iqtisodiyotining tiklanishi bilan birga mahalliy byudjet imkoniyatlarining kengayganligini ko'rsatadi.[4] 1948-yilda sanoatda ishlab turgan ishchilarning ish haqi respublika miqyosida 1940- yildagiga nisbatan 2.2 baravar oshdi, ishchi va xizmatchilar ish haqining yillik fondi esa 3.1 baravar ko'paydi.[5] Ushbu ko'rsatkichlar urushdan keyingi davrda sanoat tarmog'ining tiklanishi bilan birga mehnatga haq to'lash tizimi kengayganligini ko'rsatadi. Mazkur holat Samarqand viloyatida sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi hamda ishchi kuchiga bo'lgan talabning ortishi bilan bog'liq bo'lib, aholi daromadlari va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitning yaxshilanishiga muayyan ta'sir ko'rsatgan.

Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, Forish tumanida 1947- yilda chorvachilik uchun yem-xashak tayyorlash rejasi 287 728 tonna etib belgilangan bo'lsa-da, amalda atigi 54 870 tonna bajarilgan.[6] Ushbu holat qishloq xo'jaligida reja ko'rsatkichlari va real ishlab chiqarish o'rtasida jiddiy tafavut mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Mazkur nomutanosiblik chorvachilik tarmog'ining moddiy-texnik ta'minoti yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi hamda agrar siyosatda ayrim

yo'nalishlarga ustuvorlik berilishi natijasida resurslarning notekis taqsimlanganligi bilan izohlanadi.

Arxiv materiallariga ko'ra, 1947-yilda to'qimachilik sanoatida faoliyat yuritgan 6 ta korxona ishlab chiqarish rejasini 98,3 foiz darajada bajargan. Shu bilan birga, 1947-yilda turli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 1946-yil hisobot yiliga nisbatan 45,2 foizga yoki 18 234,9 ming rublga oshgan. Xususan, ipak to'qish fabrikasi 1946-yil rejasini 18,7 foizga ortig'i bilan bajargan bo'lsa, Kattaqo'rg'on paxta tozalash zavodida reja 12,9 foizga kam bajarilgan.[8] Ushbu ko'rsatkichlar urushdan keyingi davrda to'qimachilik sanoatining umumiy tiklanishi va ishlab chiqarish hajmining kengayganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, alohida korxonalar kesimida reja ko'rsatkichlarining turlicha bajarilishi tarmoq ichida ishlab chiqarish samaradorligi, texnik ta'minot va resurslardan foydalanish darajasi bir xil bo'lmaganligini anglatadi.

Materiallariga ko'ra, go'sht va sut sanoatida faoliyat yuritgan korxonalar 1947-yilgi ishlab chiqarish rejasini 117,7 foiz darajada bajargan. Shu bilan birga, 1947-yilda turli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 1946-yilga nisbatan 8,2 foizga oshgan.[9] Mazkur ko'rsatkichlar ushbu tarmoqda ishlab chiqarish jarayonining nisbatan barqaror tashkil etilganligini va reja ko'rsatkichlarining ortig'i bilan bajarilganligini ko'rsatadi. Bu holat oziq-ovqat sanoati yo'nalishida ishlab chiqarish samaradorligi nisbatan yuqori bo'lganligini hamda aholini asosiy iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlashga qaratilgan choralar ma'lum darajada ijobiy natija berganligini anglatadi.

Manbalarga ko'ra, 50-yillarda Darg'om tumanida feldsherlik punktlari soni 7 taga, tibbiy punktlar soni esa 5 taga yetkazilgan.[10] Ushbu ko'rsatkichlar urushdan keyingi davrda sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish va aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilganligini ko'rsatadi. Mazkur jarayon Samarqand viloyatida ijtimoiy sohani tiklash va kengaytirish siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, aholi salomatligini muhofaza qilish hamda mehnat resurslarining sifatini yaxshilashga xizmat qilgan. Ayniqsa, qishloq hududlarida birlamchi tibbiy xizmat tarmog'ining kengaytirilishi mehnatga layoqatli aholi qatlamini saqlab qolish va ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlashda muhim omil bo'lgan. Shu jihatdan, sog'liqni saqlash infratuzilmasining rivojlanishi nafaqat ijtimoiy sohada, balki viloyatning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynagan.

1951–1955 yillarda Samarqand viloyati sanoatida malakali ishchi kuchini tayyorlash ikki yo'nalishda — hunar-bilim o'quv yurtlari hamda bevosita ishlab chiqarish korxonalari va brigadalarida tashkil etilgan maxsus kurslar orqali amalga oshirilgan.[7] Ushbu yondashuv sanoatning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan kadrlar ta'minotini mustahkamlashga qaratilganligini ko'rsatadi. Mazkur tizim ishlab chiqarish jarayonini malakali ishchi kuchi bilan ta'minlash orqali sanoat korxonalarining samaradorligini oshirishga va urushdan keyingi davrda sanoatni tiklash jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qilgan. 1951–1955 yillarda fabrika-zavod ta'limi maktablari hamda hunar-bilim yurtlari tomonidan jami 7400 nafar mutaxassis tayyorlangan. Bundan tashqari, 1951 yilda Samarqanddagi 15 ta sanoat korxonasi va mahalliy kooperativ sanoatida xotin-qizlar orasidan 318 nafar ishchi tayyorlangan.[11] Ushbu ko'rsatkichlar sanoatni malakali kadrlar bilan ta'minlash tizimi kengayganligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, 1945–1955 yillar Samarqand viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida urushdan keyingi tiklanish va markazlashgan iqtisodiy siyosat asosida amalga oshirilgan tub o'zgarishlar davri bo'ldi. Arxiv materiallari tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu davrda sanoat va qishloq xo'jaligi sohalari davlatning qat'iy rejalashtirish tizimi asosida rivojlantirilib, ishlab chiqarish hajmini oshirish va iqtisodiy tuzilmani qayta shakllantirishga ustuvor ahamiyat berilgan. Xususan, paxtachilikni kengaytirishga qaratilgan siyosat natijasida ekin maydonlari va hosildorlikni oshirish bo'yicha aniq reja ko'rsatkichlari belgilangan bo'lsa-da, bu jarayon agrar tarmoqlarning biryozlama rivojlanishiga va bog'dorchilik hamda chorvachilik kabi yo'nalishlarning nisbatan orqada qolishiga olib kelgan. Shu bilan birga, sanoat tarmog'ining

tiklanishi va kengayishi, ish haqi tizimining yaxshilanishi hamda mahalliy byudjet daromadlarining ortishi iqtisodiy faollikning kuchayganligini ko'rsatadi. Tahlil natijalari shuni ham ko'rsatadiki, urushdan keyingi yillarda iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklar ham saqlanib qolgan. Reja ko'rsatkichlari va amaliy natijalar o'rtasidagi tafovut, ayniqsa chorvachilik va yem-xashak tayyorlash tizimida yaqqol namoyon bo'lgan. Shu bilan birga, sanoat tarmog'i uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimining yo'lga qo'yilishi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va sanoatni barqaror rivojlantirishga xizmat qilgan muhim omil bo'ldi. Xotin-qizlarning ishlab chiqarishga jalb etilishi esa ijtimoiy tarkibning o'zgarishi va mehnat resurslaridan foydalanishning kengayganligini aks ettiradi. Umuman olganda, 1945–1955 yillarda Samarqand viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti markazlashgan rejalashtirish asosida shakllangan, bir tomondan iqtisodiy tiklanish va modernizatsiya jarayonlari kuchaygan bo'lsa, ikkinchi tomondan tarmoqlar o'rtasidagi nomutanosibliklar saqlanib qolgan murakkab tarixiy jarayon sifatida baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Samarqand VDA 74 - fond, 1-ro'yxat, 283-ish, 5-varaq
2. Samarqand VDA 74 - fond, 1-ro'yxat, 283-ish, 6-varaq
3. Samarqand VDA 74 - fond, 1-ro'yxat, 283-ish, 7-varaq
4. Samarqand VDA 74 - fond, 1-ro'yxat, 1742-ish, 2- 3 varaq
5. “ O'zbekiston tarixi. IX jild. Samarqand tarixi. / mas'ul muharrir B. S. G'oyibov / Toshkent. “O'zbekiston” - 2023 y. 335-b
6. Samarqand VDA 74 - fond, 1-ro'yxat, 1734-ish, 8-9 varaq
7. “Samarqand tarixi”. II tom. mas'ul muharrir I. M. Mo'minov. Toshkent, FAN. 1971 – 280 b
8. Samarqand VDA 74 - fond, 1-ro'yxat, 284-ish, 3-varaq
9. Samarqand VDA 74 - fond, 1-ro'yxat, 284-ish, 4-varaq
10. Samarqand VDA 74 - fond, 1-ro'yxat, 1740-ish, 4-5 varaq
11. “Samarqand tarixi”. II tom. mas'ul muharrir I. M. Mo'minov. Toshkent, FAN. 1971 – 281 b